Muhammadaliyev Mirzohid Nosirjon o‘g‘li (Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti;
E-mail: bekhmirzokhid27@mail.ru)

VELOSIPED POREYONIMLARINING TUZILISHIGA KO‘RA TURLARI VA LISONIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi velosiped poreyonimlarining strukturaviy xususiyatlari qiyosiy-lisoniy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda velosiped model nomlari sodda, qo‘shma va qisqartma tarkibli poreyonimlarga ajratilib, ularning lug‘aviy hamda morfologik xususiyatlari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *velosiped poreyonimlari, onomastika, leksik-semantik tahlil, strukturaviy tahlil.*

Мухаммадалиев Мирзохид (докторант Наманганского государственного университета)

СТРУКТУРНЫЕ ТИПЫ И ЯЗЫКОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ ВЕЛОСИПЕДНЫХ ПОРЕОНИМОВ

Аннотация. *В данной статье на основе сопоставительно-лингвистического подхода анализируются структурные типы пореонимов велосипедов в узбекском и английском языках. Названия моделей велосипедов классифицируются на простые, сложные и аббревиатурные пореонимы, а также рассматриваются их лексико-семантические и морфологические особенности.*

Ключевые слова: *пореонимы велосипедов, ономастика, лексико-семантический анализ, структурный анализ, сопоставительное языкознание.*

Mukhammadaliyev Mirzokhid (Doctoral student of Namangan State University)

STRUCTURAL TYPES AND LINGUISTIC FEATURES OF BICYCLE POREONYMS

Annotation. *This article presents a comparative linguistic analysis of the structural types of bicycle poreonyms in the Uzbek and English languages. The study classifies bicycle model names into simple, compound, and abbreviated poreonyms and examines their lexical-semantic and morphological features.*

Keywords: *bicycle poreonyms, onomastics, lexical-semantic analysis, structural analysis, comparative linguistics.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda transport vositalari nomlarini onomastik nuqtayi nazardan o‘rganish ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ularning strukturaviy va leksik-semantik xususiyatlarini o‘rganish, nomlash tamoyillarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi velosiped poreyonimlari qiyosiy-lisoniy jihatdan tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Transport onomastikasi va poreyonimlarga oid ilmiy tadqiqotlarda transport vositalari nomlarining leksik-semantik hamda strukturaviy xususiyatlari yoritilgan. Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek va ingliz tillaridagi velosiped poreyonimlarining qiyosiy-strukturaviy xususiyatlari hozirgacha alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o‘rganilmagan. Shu bois mazkur maqolada ushbu masala alohida tadqiqot obyekti sifatida tanlandi.

Tadqiqotda jarayonida qiyosiy-tarixiy, tavsifiy, leksik-semantik va strukturaviy tahlil metodlari qo‘llanilib, ular orqali velosiped poreyonimlarining tuzilishi va ma’noviy xususiyatlari o‘rganildi. Velosiped poreyonimlari tarkibiy tuzilishiga ko‘ra tasniflanib, ularning semantik motivatsiyasi qiyosiy jihatdan tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Velosiped poreyonimlari ham boshqa transport nomlari singari morfologik tuzilishiga ko‘ra sodda tarkibli, qo‘shma tarkibli va qisqartma poreyonimlarga ajratiladi. Har bir tur o‘zining nomlanish modeli, semantik xususiyati va marketing vazifasi bilan farqlanadi.

1. Sodda tarkibli velosiped poreyonimlari. Bitta leksik asosdan tashkil topgan transport nomlari. Bunday nomlar talaffuz qilishning qulayligi, esda qolishi va fonetik ixchamli bilan ajralib turadi. Odatda, bunday poreyonimlar tezlik, kuch, erkinlik, tabiat yoki harakatni ifodalovchi so‘zlardan hosil qilinadi: *Domane, Defy, Madone, Emonda, Marlin, Roscoe, Talon, Anthem, Revolt, Escape, Rockhopper, Sirrus, Allez, Diverge, Chisel, Stumpjumper, Fuel, Slash, Remedy, Topstone, Synapse, Scalpel, Fathom, Propel, Contend, Polygon, Aspect, Spark, Scale, Voltage* va boshqalar.

Sodda tarkibli poreyonimlar zamonaviy tilshunoslikda keng qo‘llaniladi. Masalan, *Escape* nomi ingliz tilida “qutulmoq, xalos bo‘lmoq” ma’nolarini anglatadi. Mazkur leksema erkinlik, harakat va cheklovlardan xalos bo‘lish semalari bilan bog‘liq bo‘lib, model nomining semantik motivatsiyasini shakllantiradi.[1] *Revolt* poreyonimi yangilikka intilish, dadillik va faol harakat g‘oyalarini ifodalovchi nom bo‘lib, modelning dinamik xarakterini namoyon etadi.[2] *Marlin* poreyonimi tez suzuvchi marlin balig‘i obrazi bilan bog‘-

[1] https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/escape
[2] https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/revolt

lanib, modelning chaqqonligi, tezkorligi va harakatchanligini ramziy ifodalaydi.[1] Sodda tarkibli poreyonimlar reklama, psixologik ta'sir va brend identifikatsiyasining muhim vositasi sifatida xizmat qiladi.

2. **Qo'shma tarkibli velosiped poreyonimlar.** Ikki yoki undan ortiq asosning birikishi asosida hosil bo'ladi. Bunday nomlar velosipedning texnik tavsifi, foydalanish maqsadi, konstruktiv xususiyati yoki marketing konsepsiyasini ifodalashga xizmat qiladi. Sodda tarkibli poreyonimlardan farqli ravishda, qo'shma tarkibli poreyonimlar semantik jihatdan kengroq axborot beradi: *Top Fuel, Fuel EX, Dual Sport, Speed Concept, Checkpoint* (Trek), *Supercaliber, SuperSix EVO, Eic EVO, Turbo Levo, Stereo Hybrid, Big Nine, Big Seven, Big Trail, Crossway Urban, Crossway XT, Hard Seven, Aim Race kabi.*

Qo'shma tarkibli velosiped poreyonimlari quyidagi xususiyatga ega:

1. Semantik jihatdan boy bo'ladi. Ikki va undan ortiq komponentning birikishi natijasida hosil bo'lgan nomlar velosipedning vazifasi, texnik imkoniyati va foydalanish yo'nalishi haqida ko'proq ma'lumot beradi. Masalan, *Dual Sport* – "dual" (ikki xil) va "sport" qismlaridan iborat bo'lib, bu model asfalt va notekis yo'llarda foydalanishga mo'ljallangan universal velosipedni anglatadi.[2] *Touring Hybrid* – " touring" (sayohat), "hybrid" (gibrid) so'zlaridan tashkil topib, uzoq masofali safarlar uchun elektr tizimiga ega velosipedni ifodalaydi.

2. Texnik va funksional xususiyatni ifodalaydi. Qo'shma tarkibli velosiped poreyonimlari, ko'pincha, modelning konstruktiv yechimi yoki texnologik ustunligini bildiradi. Masalan, *Reaction Hybrid* nomidagi Hybrid komponenti elektr yordamchi tizimidan foydalanilganini bildirsa, *Stereo Hybrid* modelidagi Stereo velosipedning to'liq amortizatsiyali konstruksiyasiga ishora qiladi.

3.Marketing funksiyasini kuchaytiradi. Qo'shma tarkibli poreyonimlar xaridorda velosipedning sifati va vazifasi haqida ijobiy tasavvur hosil qilib, mahsulotga qiziqishni oshiradi. Masalan, *Speed Concept* nomidagi "speed" (tezlik) va "concept" (konseptsiya) komponentlari modelning yuqori aerodinamik xususiyatlarga ega ekanligini anglatadi. *Top Fuel* nomidagi " top" (eng yuqori) va " fuel" (energiya) birliklari esa maksimal samaradorlik va sport ruhini ifodalaydi.

4. Modelni boshqa modifikatsiyalardan farqlaydi. Qo'shma tarkibli poreyonimlar bir xil asosdagi modellarning turli versiyalarini ajratishda ham muhim ahamiyatga ega. *Masalan, Big Nine, Big Seven* va *Big Trail* modellari umumiy Big komponentiga ega bo'lsa-da, ikkinchi komponent orqali g'ildirak o'lchami yoki foydalanish maqsadiga ko'ra farqlanadi.

5. Xalqaro bozorda brend mavqeini mustahkamlaydi. Qo'shma tarkibli velosiped poreyonimlarining ayrimlari ingliz tilida yaratilgani sababli ular xalqaro xaridorlar uchun tushunarli va oson esda qoladigan nomlar hisoblanadi. Bu esa brendning global bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Qo'shma tarkibli velosiped poreyonimlari lug'aviy va morfologik asosiga ko'ra, quyidagi strukturaviy modellarga ajratiladi:

1. Sifat+ot modelidagi qo'shma poreyonimlar. Bu turdagi nomlarda birinchi komponent velosipedning sifati, hajmi yoki darajasini, ikkinchi komponent esa asosiy tushunchani ifodalaydi: *Big Nine, Big Seven, Big Trail, Hard Seven, Top Fuel.* Masalan, *Big Nine* nomidagi Big komponenti katta o'lchamni, Nine esa 29 dyumli g'ildirak platformasini anglatadi. *Top Fuel* nomida Top eng yuqori darajani, Fuel esa energiya va unumdorlikni ifodalaydi.

2. Ot+ot modelidagi qo'shma poreyonimlar. Bu model ikki otning birikishidan hosil bo'lib, velosipedning vazifasi, konstruksiyasi yoki foydalanish maqsadini bildiradi: *Speed Concept, Fuel EX, Dual Sport, Turbo Levo, Checkpoint.* Masalan, *Speed Concept* nomi yuqori tezlikka mo'ljallangan aerodinamik velosiped konsepsiyasini ifodalaydi.

3. Sifat+ot+ot modelidagi qo'shma poreyonimlar. Uch komponentdan tashkil topgan bo'lib, modelning funksional va tenologik xususiyatlarini kengroq ifodalaydi: *Dual Sport EQ, Touring Hybrid One, Stereo Hybrid Pro, Reaction Hybrid Race.* Masalan, *Touring Hybrid One* modelida Touring uzoq masofali sayohatni, Hybrid elektr yordamchi tizimini, One esa modelning boshlang'ich komplektatsiyasini bildiradi. *Reaction Hybrid Race* nomida esa Reaction model oilasini, Hybrid elektr uzatmasini, Race esa sport yo'nalishini ifodalaydi.

5. Ot+sifat modelidagi qo'shma poreyonimlar. Bu turdagi nomlarda asosiy tushuncha birinchi, uni aniqlovchi komponent ikkinchi o'rinda keladi: *Reaction Hybrid, Stereo Hybrid, Touring Hybrid.*

---

[1] https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/marlin

[2] https://dictionary.cambridge.org

3. Qisqartma shaklidagi velosiped poreyonimlari. Bunday nomlar bir yoki bir necha so‘zning bosh harflari, qisqartirilgan komponentlari yoki harf-raqam kombinatsiyalari asosida hosil qilinadi. Bunday nomlash usuli zamonaviy velosiped sanoatida keng qo‘llanilib, model nomining ixchamligi, oson esda qolishi va xalqaro bozorda tez tanilishiga xizmat qiladi. Masalan, *Emonda SL 6, Madone SLR 9, XTC SLR 29, Scale RC 900, Fuel EX 8, Marlin 7 Gen 3, FX 3, Top Fuel 9.8.*

Qisqartma shaklidagi poreyonimlar, odatda, modelning texnik xususiyati, ishlab chiqaruvchi tomonidan qo‘llanilgan texnologiya yoki mahsulot oilasini ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan, *SL* (Super Light) velosipedining yengil konstruksiyaga ega ekanligini bildiradi. *SLR* (Super Light Racing) esa sport musobaqalari uchun mo‘ljallangan yuqori darajadagi yengil modelni anglatadi. *RC* (Racing Concept) qisqartmasi poyga uchun ishlab chiqarilgan velosipedni ifodalaydi. *EVO* (Evolution) modelning takomillashtirilgan yoki yangi avlodga mansubligini bildiradi.

Velosiped poreyonimlarida harf va raqamlarning birgalikda qo‘llanilishi ham keng uchraydi: *FX 3, SL 7, XTC SLR 29, RC 900, Emonda SL 6* kabi nomlarda harflar modelning texnologik darajasini, raqamlar esa modifikatsiyasi, avlodi yoki texnik komplektatsiyasini ifodalaydi.

Qisqartma shaklidagi poreyonimlar murakkab texnik nomlarni ixchamlashtirib, xalqaro bozorda brend va modelning tez tanilishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ular xaridorga velosipedning texnik darajasi va funksional imkoniyatlari haqida qisqa, ammo muhim axborotni yetkazadi.

Kevin Lane Kellerning fikricha kuchli brend nomi iste’molchi xotirasida oson saqlanishi, tez tanilishi va raqobatchi mahsulotlardan aniq foydalanishi lozim. Shu sababli zamonaviy velosiped ishlab chiqaruvchilar model nomlarida qisqartmalardan keng foydalanadilar. Bunday qisqartmalar modelning texnik darajasi va funksional xususiyatlarini ifodalash bilan birga, uning xalqaro bozordagi identifikatsiyasini ham kuchaytiradi.[1]

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilidagi velosiped poreyonimlarida qo‘shma va qisqartma modellar o‘zbek tilidagiga nisbatan faolroq qo‘llaniladi.

Xulosa. Tadqiqot natijasida o‘zbek va ingliz tillaridagi velosiped poreyonimlarining strukturaviy hamda leksik-semantik xususiyatlari aniqlandi. Velosiped model nomlarining asosan sodda, qo‘shma va qisqartma shakllarda qo‘llanishi hamda ularning semantik motivatsiyasi nomlash jarayonida muhim ahamiyat kasb etishi kuzatildi. Mazkur tadqiqot natijalari transport onomastikasi, qiyosiy tilshunoslik hamda zamonaviy nomshunoslik bo‘yicha keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. Наманган, 2006.
(2). Hough C. (Ed.). (2016). The Oxford Handbook of Names and Naming. Oxford: Oxford University Press.
(3). Crystal, D. (2008). A Dictionary of Linguistics and Phonetics (6th ed.). Oxford: Blackwell Publishing.
(4). https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english

Qodirova Naziraxon Murodbek qizi (Andijon davlat Chet tillari instituti mustaqil izanuvchisi)

ILMIY DISKURSDA PERSUAZIVLIKNI IFODALOVCHI LINGVISTIK VOSITALAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ilmiy diskursda persuazivlikni ifodalovchi asosiy lingvistik vositalar tahlil qilinadi. Ilmiy matnlarda persuazivlikning obyektivlik tamoyili bilan uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘lishi, muallifning ilmiy pozitsiyasini asoslashda modal birliklar, argumentativ bog‘lovchilar, enonsiativ vositalar, inkor shakllari, ilmiy etos va intertekstual vositalarning o'rni yoritiladi. Tadqiqotda J. Swalesning CARS modeli hamda O.Dyukro va J.-C.Anscombrning argumentatsiya nazariyasiga tayanilib, fransuz va o‘zbek ilmiy diskursida qo‘llaniladigan persuaziv birliklarning lingvopragmatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *ilmiy diskurs, persuazivlik, lingvistik vositalar, argumentatsiya, modal birliklar, argumentativ bog‘lovchilar, enonsiatsiya, inkor shakllari, ilmiy etos, CARS modeli, lingvopragmatika, fransuz tili, o‘zbek tili.*

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА ВЫРАЖЕНИЯ ПЕРСУАЗИВНОСТИ В НАУЧНОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация. *В статье рассматриваются основные лингвистические средства выражения персуазивности в научном дискурсе. Анализируется взаимодействие объективности научного изло-*

[1] Keller K.L. Strategic Brand Management: Building, Measuring, and Managing Brand Equity. 4th ed. Harlow: Pearson Education Limited, 2013, p. 147–149.